

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS

TA‘LIM VAZIRLIGI

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

Qo‘l yozma huquqida

UDK 517.958

Hasanov Boburjon Masharipovich

**INTEGRAL MANBALI UMUMIY DAVRIY TODA TENGLAMASII
INTEGRALLASHNING YANGICHA USULI**

**Mutaxassislik: 5A130103 – «Differensial tenglamalar va matematik
fizika»**

D I S S E R T A T S I Y A

Matematika magistri akademik darajasini olish uchun

Ilmiy rahbar: _____ f.m.f.n. Babajanov B.A.

Urganch – 2018

MUNDARIJA

KIRISH	3
I-BOB. Davriy diskret Xill tenglamasi uchun to`g`ri va teskari spektral masalalar	
1-§. Bazis yechimlar va ularning xossalari	6
2-§ Floke teoremasi	17
3-§ Teskari masala yechish algoritmi keltirib chiqarish.....	24
I-bob bo'yicha xulosa.....	33
II-BOB. Integrallanuvchi tenglamalar sistemalari	
1-§. Integral manbali umumiy davriy Toda tenglamasni keltirib chiqaris....	34
2-§ Spektral parametrni o`zgarish dinamikasini aniqlash.....	42
3-§ Misollar.....	48
II-bob bo'yicha xulosa.....	51
XULOSA	52
ADABIYOTLAR	53

KIRISH

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi. Nochiziqli evalyutsion tenglamalarga qoyilgan Koshi masalalarining global yechimlarini teskari masalalar usulidan foydalanib topish masalasi matematika va fizikaning muhim masalalardan biridir. Bu masalalar hozirgi kunda ko`plab amaliy tatbiqlarga ega, ulardan kvant fizikasi, chiziqli va nochiziqli xususiy hosilali tenglamalar nazariyasi, kristallografiya, geologiya-razvedka kabi masalalarni hal qilishda matematik apparat sifatida umumli foydalanib kelinmoqda. Integral manbali umumiy davriy Toda tenglamasi yuqorida qayt qilingan Nochiziqli evalyutsion tenglamalardan biri bo`lib, qattiq jismlar mexanikasida muhim amaliy tadbiqlarga ega.

Hozirgi kunda moslangan manbali nochiziqli evalutsion tenglamalarning muhim amaliy tatbiqlari topilganligi bois ularni o`rganishga bo`lgan qiziqish yanada ortmoqda.

Ilmiy izlanishning maqsad va vazifalari. Ushbu ishda quyidagi

$$\left\{ \begin{array}{l} \dot{a}_n = P_m(a_n, b_n) + a_n \int_E \tilde{\theta}_{N+1}(\lambda, t) [\psi_{n+1}^-(\lambda, t) \psi_{n+1}^+(\lambda, t) - \psi_n^-(\lambda, t) \psi_n^+(\lambda, t)] d\lambda \\ \dot{b}_n = Q_m(a_n, b_n) + a_n \int_E \tilde{\theta}_{N+1}(\lambda, t) [\psi_n^-(\lambda, t) \psi_{n+1}^+(\lambda, t) + \psi_{n+1}^-(\lambda, t) \psi_n^+(\lambda, t)] d\lambda - \\ \quad - a_{n-1} \int_E \tilde{\theta}_{N+1}(\lambda, t) [\psi_n^-(\lambda, t) \psi_{n-1}^+(\lambda, t) + \psi_{n-1}^-(\lambda, t) \psi_n^+(\lambda, t)] d\lambda \\ a_{n+N} = a_n, \quad b_{n+N} = b_n, \quad n \in Z, \end{array} \right. \quad (1)$$

N -davrlı integral manbali umumiy davriy Toda tenglamasini ushbu

$$a_n(0) = a_n^0, \quad b_n(0) = b_n^0, \quad n \in Z, \quad (2)$$

boshlang`ich shartlar bilan qaraymiz. a_n^0 va b_n^0 , $n \in Z$ lar N -davrlı periodic xaqiqiy sonlar ketma-ketligi. (1) da

$$\begin{aligned} P_m(a_n, b_n) &= a_n[-\beta_{n,m} - \beta_{n+1,m} + b_{n+1}\alpha_{n+1,m}], \\ Q_m(a_n, b_n) &= a_n^2\alpha_{n+1,m} - a_{n-1}^2\alpha_{n-1,m} - 2b_n\beta_{n,m} + b_n^2\alpha_{n,m}, \quad m \in N, t \in R, \end{aligned}$$

hamda $\{\alpha_{n,j}(t)\}_{0 \leq j \leq m}$, $\{\beta_{n,j}(t)\}_{0 \leq j \leq m}$ lar ushbu

$$\beta_{n,0} = -1, \quad \alpha_{n,0} = 0, \quad \alpha_{n,1} = 2,$$

$$\beta_{n,j-1} - \beta_{n-1,j-1} = b_n(\beta_{n,j-2} - \beta_{n-1,j-2}) - a_n^2 \alpha_{n+1,j-2} + a_{n-1}^2 \alpha_{n-1,j-2}, \quad 2 \leq j \leq m,$$

$$\beta_{n,j} = \frac{a_{n-1}^2}{2} \alpha_{n-1,j-1} - \frac{a_n^2}{2} \alpha_{n+1,j-1} + \frac{b_n^2}{2} \alpha_{n,j-1} - b_n \beta_{n-1,j-1}, \quad 1 \leq j \leq m,$$

$$\alpha_{n,j} = b_n \alpha_{n,j-1} - \beta_{n-1,j-1} - \beta_{n,j-1}, \quad 2 \leq j \leq m,$$

requrent munosabatlarni qanoatlantiradi. (1) sistemada $m \in N$ ning o`zgarishi integral manbali umumiy davriy Toda tenglamasini beradi. $\{a_n(t)\}_{-\infty}^{\infty}$, $\{b_n(t)\}_{-\infty}^{\infty}$, $\{\psi_n^{\pm}(t)\}_{-\infty}^{\infty}$ – funksiyalar nomalum funksiyalar, hamda $\{\psi_n^{\pm}(t)\}_{-\infty}^{\infty}$ funksiyalar ushbu

$$(L(t)y)_n \equiv a_{n-1}y_{n-1} + b_n y_n + a_n y_{n+1} = \lambda y_n \quad (3)$$

diskret Xill tenglamasini Floke-Blox yechimlari bo`lib, quyidagi

$$\psi_1^{\pm}(\lambda, t) = 1. \quad (4)$$

(1) sistemadagi E to`plam $L(0)$ operatorning spektridan iborat. $\tilde{\theta}_{N+1}(\lambda, t)$ ko`paytuvchi ushbu

$$\tilde{\theta}_{N+1}(\lambda, t) = \prod_{j=1}^{N-1} (\lambda - \mu_j(t))$$

tenglikdan aniqlanadi. Bu erda $\mu_1(t), \mu_2(t), \dots, \mu_{N-1}(t)$ lar quyidagi

$$\theta_{N+1}(\lambda, t) = 0$$

tenglamani ildizlari. $\theta_n(\lambda, t)$, $n \in Z$ funksiya (3) tenglamani ushbu

$$\theta_0(\lambda, t) = 1, \quad \theta_1(\lambda, t) = 0$$

Shartlarni qanoatlantiruvchi yechimlari.

Ushbu ishning asosiy maqsadi-(1)-(4) masalaning yechimini teskari masalalar usuludan foydalanib topish algoritmini berishdan iborat.

Mavzuning o`rganilish darajasining qiyosiy tahlili: Zarrachani to`g`ri chizikli o`zaro eksponentsial ta`sirini ifodalovchi ushbu

$$\frac{\partial^2 u_n}{\partial t^2} = \exp(u_{n-1} - u_n) - \exp(u_n - u_{n+1}), \quad n \in Z,$$

Toda zanjiri [1] Flashka o`zgaruvchilari [2] orqali quyidagicha

$$\begin{cases} \dot{a}_n = a_n(b_n - b_{n+1}), \\ \dot{b}_n = 2(a_{n-1}^2 - a_n^2), \quad n \in Z \end{cases}$$

ko`rinishga ega bo`ladi. Toda tenglamasi birinchi bor B.M. Toda tomonidan kiritilgan [1]. Shundan keyin, Flashka [2] diskret Xill tenglamasiga qo`yilgan teskar masala usuli yordamida Toda tenglamasiga qo`yilgan Koshi masalasining yechimi topishga muvassar bo`lgan. Xuddi shunday natija Flashkani natijasidan bexabar ravishda Manakov [3] tomonidan ham olingan. Davriy Toda tenglamasi [4-9] ishlarda o`rganilgan. Shundan keyin diskret Xill tenglamasiga qo`yilgan teskari masalalar usuli yordamida integrallanadigan barcha nochiqli evalutsion tenglamalarni topishga bo`lgan qiziqish ortgan. Bu tenglamalar odatda Umumiy Toda tenglamasi deb yuritiladi. Umumiy Toda tenglamasi birinchi bor K. Ueno va K. Takasakilar [10] tomonidan kiritilgan. Umumiy Toda tenglamasining diskret Xill tenglamasiga qo`yilgan teskari masalalar usulida integrallash mumkinligi [11-22] ishlarda ko`rsatilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi: Ushbu ishda diskret Xill tenglamasiga qo`yilgan teskari masalalar usuli yordamida integrallanadigan barcha nochiqli evalutsion tenglamalarni keltirib chiqarishning yangicha usuli berilgan. Diskret Xill tenglamasiga qo`yilgan teskari masalalar usulidan foydalanib (1)-(4) masalaning yechimi uchun aniq tasvir olingan.

Tadqiqot predmeti va ob`ekti. Bitiruv malakaviy ishda oddiy differensial tenglamalar, matematik fizika tenglamalari, funksional analiz, differensial operatorlarning spektral nazariyasi predmetlari usullaridan foydalaniladi. Tadqiqotning obyekt integral manbali umumiy davriy Toda tenglamasi.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati. O`ganilgan natijalardan amaliy ahamiyatga ega bo`lib, qattiq jismlar mexanikasi, kristallografiya va geologiya-razvedka masalalarida muhim tadbirlarga ega.

I-BOB. DAVRIY DISKRET XILL TENGLAMASI UCHUN TO`G`RI VA TESKARI SPEKTRAL MASALALAR

Ushbu bobda diskret Hill tenglamasiga qo`yilgan to`g`ri va teskari masalalar haqidagi zarur ma`lumotlar keltiriladi

1-§ Bazis yechimlar va ularning xossalari

Quyidagi tenglamalar sistemasini ko`rib chiqamiz:

$$(L\varphi)_n \equiv a_{n-1}y_{n-1} + b_n y_n + a_n y_{n+1} = \lambda y_n, \quad n \in Z \quad (1.1.1)$$

bu yerda a_n, b_n haqiqiy N davrli koeffitsientlar:

$$a_{n+N} = a_n, \quad b_{n+N} = b_n, \quad n \in Z \quad (1.1.2)$$

N biror natural son, λ kompleks parametr.

Misol 1. $a_n \equiv a \equiv const, b_n \equiv b \equiv const$ bo`lsin. Bu holda (1.1.1) sistema quyidagi ko`rinishda bo`ladi.

$$a y_{n-1} + b y_n + a y_{n+1} = \lambda y_n, \quad n \in Z \quad (1.1.3)$$

buning yechimini $y_n = \mu^n$ ko`rinishida izlaymiz.

$$a\mu^{n-1} + b\mu^n + a\mu^{n+1} = \lambda\mu^n,$$

$$a + b\mu + a\mu^2 = \lambda\mu, \quad a\mu^2 + (b - \lambda)\mu + a = 0.$$

$$D = (b - \lambda)^2 - 4a^2,$$

$$\mu_1 = \frac{-(b - \lambda) + \sqrt{(b - \lambda)^2 - 4a^2}}{2a}, \quad \mu_2 = \frac{-(b - \lambda) - \sqrt{(b - \lambda)^2 - 4a^2}}{2a}.$$

Agar $D \neq 0$ bo`lsa, u holda $y_n = c_1\mu_1^n + c_2\mu_2^n$ (1.1.3) tenglamaning umumiy yechimi bo`ladi. Agar $D = 0$ bo`lsa, u holda $y_n = c_1\mu_1^n + c_2\mu_2^n n$ (1.1.3) tenglamaning umumiy yechimi bo`ladi.

Misol 2. $a_n \equiv \frac{1}{2}, b_n \equiv 0$ bo'lsin. Bu holda (1.1.1) sistema quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$\frac{1}{2}y_{n-1} + \frac{1}{2}y_n = \lambda y_n, \quad n \in Z \quad (1.1.4)$$

buning yechimini $y_n = \mu^n$ ko'rinishida izlaymiz.

$$\mu^{n-1} + \mu^n = 2\lambda\mu^n,$$

$$1 + \mu^2 = 2\lambda\mu, \quad \mu^2 - 2\lambda\mu + 1 = 0.$$

$$D = 4\lambda^2 - 4 = 4(\lambda^2 - 1),$$

$$\mu_1 = \lambda + \sqrt{\lambda^2 - 1},$$

Agar $D \neq 0$ bo'lsa, yani $\lambda \neq \pm 1$ bo'lsa $\mu_2 = \lambda - \sqrt{\lambda^2 - 1}$ u holda

$$y_n = c_1 \left(\lambda + \sqrt{\lambda^2 - 1} \right)^n + c_2 \left(\lambda - \sqrt{\lambda^2 - 1} \right)^n, \quad (1.1.5)$$

(1.1.4) tenglamaning umumiy yechimi bo'ladi. Agar $\lambda = \pm 1$ bo'lsa,

$$y_n = c_1 (\pm 1)^n + c_n (\pm 1)^n n,$$

(1.1.4) tenglamaning umumiy yechimi bo'ladi. (1.1.5) yechimda λ haqiqiy bo'lib $\lambda^2 - 1 < 0$ bo'lsa, $-1 < \lambda < 1$ bo'ladi. Bu holda $\lambda = \cos \alpha$ desak, (1.1.5) quyidagi tarzda yoziladi.

$$y_n = c_1 e^{in\alpha} + c_n e^{-in\alpha}$$

(1.1.1) tenglamaning quyidagi boshlang'ich shartlarni qanoatlantiruvchi yechimlarini $\theta_n(\lambda)$ va $\varphi_n(\lambda)$ orqali belgilaymiz.

$$\begin{cases} \theta_0(\lambda) = 1. \\ \theta_1(\lambda) = 0, \end{cases} \quad \begin{cases} \varphi_0(\lambda) = 0. \\ \varphi_1(\lambda) = 1, \end{cases} \quad (1.1.6)$$

$\theta_n(\lambda)$ va $\varphi_n(\lambda)$ yechimlar (1.1.1) tenglama yechimlarining fundamental sistemasini tashkil qiladi. Shuning uchun (1.1.1) tenglamaning ixtiyoriy $y_n(\lambda)$ yechimi ular orqali chiziqli ifodalanadi.

$$y_n(\lambda) = c_1 \cdot \theta_n(\lambda) + c_2 \varphi_n(\lambda) \quad n \in \mathbb{Z} \quad (1.1.7)$$

Teorema 1.1. $\theta_n(\lambda)$ va $\varphi_n(\lambda)$ yechim mavjud va yagona bo`lib, ular uchun
ushbu

$$\theta_n(\lambda) = -a_0 \left(\prod_{j=1}^{n-1} a_j \right)^{-1} \left\{ \lambda^{n-2} - \left(\sum_{j=2}^{n-1} b_j \right) \lambda^{n-3} + \left[\frac{1}{2} \left(\sum_{j=2}^{n-1} b_j \right)^2 - \frac{1}{2} \sum_{j=2}^{n-1} b_j^2 - \sum_{j=2}^{n-2} a_j^2 \right] \lambda^{n-4} + \dots \right\}$$

,

$$(1.1.8)$$

$$\varphi_n(\lambda) = \left(\prod_{j=1}^{n-1} a_j \right)^{-1} \left\{ \lambda^{n-1} - \left(\sum_{j=1}^{n-1} b_j \right) \lambda^{n-2} + \left[\frac{1}{2} \left(\sum_{j=1}^{n-1} b_j \right)^2 - \frac{1}{2} \sum_{j=1}^{n-1} b_j^2 - \sum_{j=1}^{n-2} a_j^2 \right] \lambda^{n-3} + \dots \right\}$$

$$(1.1.9)$$

tasvirlar o`rinli.

Isbot:

$$a_{n-1} \theta_{n-1} + b_n \theta_n + a_n \theta_{n+1} = \lambda \theta_n, \quad n \in \mathbb{Z} \quad (1.1.10)$$

tenglikda $n = 1$ desak, va (1.1.8) boshlang'ich shartlarni inobatga olsak

$$a_0 + a_1 \theta_2 = 0, \quad (1.1.11)$$

kelib chiqadi. Bunga ko'ra $\theta_2(\lambda) = -\frac{a_0}{a_1}$ bo'ladi (1.1.10) da $n = 2$ desak va

boshlang'ich shartlardan foydalansak

$$b_2 \theta_2 + a_2 \theta_3 = \lambda \theta_2, \quad (1.1.12)$$

kelib chiqadi (1.1.11) va (1.1.12) dan

$$\theta_3 = -\frac{\lambda - b_2}{a_2} \cdot \theta_2 = -\frac{(\lambda - b_2)a_0}{a_1 \cdot a_2} \quad (1.1.13)$$

kelib chiqadi. (1.1.10) da $n=3$ desak

$$a_2\theta_2 + b_3\theta_3 + a_3\theta_4 = \lambda\theta_3 \quad (1.1.14)$$

kelib chiqadi.(1.1.11), (1.1.13) va (1.1.14) dan

$$\begin{aligned} \theta_4 = -\frac{\lambda - b_3}{a_3} \cdot \theta_3 - \frac{a_2}{a_3} \cdot \theta_2 = -\frac{(\lambda - b_3)(\lambda - b_2) \cdot a_0}{a_1 \cdot a_2 \cdot a_3} + \frac{a_2 \cdot a_0}{a_3 \cdot a_1} = \\ -\frac{a_0}{a_1 \cdot a_2 \cdot a_3} [\lambda^2 - (b_2 + b_3)\lambda + b_2 \cdot b_3 - a_2^2]; \end{aligned} \quad (1.1.15)$$

kelib chiqadi. $a_n \neq 0$, $n \in \mathbb{Z}$ shartdan θ_n yechiminig mavjud va yagona bo'lishi ham shu tarzda ko'rsatiladi, umuman $n \geq 2$ bo'lganda shu jarayonni davom qildirish natijasida (1.1.8) va (1.1.9) tengliklar o'rinli bo'lishi kelib chiqadi.

Teorema isbotlandi.

Teorema 1.2. Quyidagi tengliklar o'rinli

$$\begin{pmatrix} \theta_{n+N} \\ \varphi_{n+N} \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} \theta_N & \theta_{N+1} \\ \varphi_N & \varphi_{N+1} \end{pmatrix} \cdot \begin{pmatrix} \theta_n \\ \varphi_n \end{pmatrix} \quad (1.1.16)$$

Isbot. Ushbu

$$a_{n-1}\theta_{n-1} + b_n\theta_n + a_n\theta_{n+1} = \lambda\theta_n, \quad (1.1.17)$$

$$a_{n-1}\varphi_{n-1} + b_n\varphi_n + a_n\varphi_{n+1} = \lambda\varphi_n, \quad (1.1.18)$$

tengliklarda uning o'rniga $n+N$ ni qo'yib, $a_{n+N} = a_n, b_{n+N} = b_n$ shartlardan foydalansak quyidagi

$$a_{n-1}\theta_{n+N-1} + b_n\theta_{n+N} + a_n\theta_{n+N+1} = \lambda\theta_{n+N}, \quad (1.1.19)$$

$$a_{n-1}\varphi_{n+N-1} + b_n\varphi_{n+N} + a_n\varphi_{n+N+1} = \lambda\varphi_{n+N}, \quad (1.1.20)$$

ayniyatlar kelib chiqadi. Bularga ko'ra,

$$\theta_{n+N} = c_1 \theta_n + c_2 \varphi_n, \quad (1.1.21)$$

$$\varphi_{n+N} = D_1 \theta_n + D_2 \varphi_n \quad (1.1.22)$$

bo'ladi. (1.1.21) va (1.1.22) larda $n = 0$ va $n = 1$ deb (1.1.8) boshlang'ich shartni xisobga olsak $c_1 = \theta_N$, $c_2 = \theta_{N+1}$, $D_1 = \varphi_N$, $D_2 = \varphi_{N+1}$, hosil bo'ladi. Bularni (1.1.21) va (1.1.22) ga qo'ysak

$$\theta_{n+N} = \theta_N \cdot \theta_n + \theta_{N+1} \cdot \varphi_n, \quad (1.1.23)$$

$$\varphi_{n+N} = \varphi_N \cdot \theta_n + \varphi_{N+1} \cdot \varphi_n \quad (1.1.24)$$

kelib chiqadi. Bularni matritsaviy tarzda yozsak (1.1.16) xosil bo'ladi. Teorema 2 isbotlandi.

Ta'rif 1.1. Ushbu

$$M = \begin{pmatrix} \theta_N(\lambda) & \theta_{N+1}(\lambda) \\ \varphi_N(\lambda) & \varphi_{N+1}(\lambda) \end{pmatrix} \quad (1.1.25)$$

matritsaga monodromiya matritsasi deyiladi.

Ta'rif 1.2. Ushbu

$$\Delta(\lambda) = \theta_N(\lambda) + \varphi_{N+1}(\lambda) \quad (1.1.26)$$

funksiyaga Lyapunov funktsiyasi yoki Xill diskriminanti deyiladi.

Teorema 1.3. Ushbu

$$\Delta^2(\lambda) - 4 = \left(\prod_{j=1}^N a_j \right)^{-2} \left\{ \lambda^{2N} - 2 \left(\sum_{j=1}^N b_j \right) \lambda^{2N-1} + \left[2 \left(\sum_{j=1}^N b_j \right)^2 - \sum_{j=1}^N b_j^2 - 2 \sum_{j=1}^N a_j^2 \right] \lambda^{2N-2} + \dots \right\} \quad (1.1.27)$$

tenglik o`rinli.

Isbot. Teoremani isboti Lyapunov funktsiyasini ko`rinishi (1.1.26) va bazis yechimlar uchun olingan (1.1.8)-(1.1.9) tasvirlardan to`g`ridan- to`g`ri hisoblashlar yordamida kelib chiqadi.

Ta`rif 1.3. Ushbu

$$W = a_n \cdot [\theta_n(\lambda) \cdot \varphi_{n+1}(\lambda) - \theta_{n+1}(\lambda) \cdot \varphi_n(\lambda)] \quad (1.1.28)$$

ifodaga $\theta_n(\lambda)$, $\varphi_n(\lambda)$ yechimlarning Vroniskiy determinanti deyiladi.

Teorema 1.3. $\theta_n(\lambda)$ va $\varphi_n(\lambda)$ larning W Vroniskiy determinanti n ga ham, λ ga ham bog`liq emas bo`lib, ushbu

$$W = a_n [\theta_n(\lambda) \varphi_{n+1}(\lambda) - \theta_{n+1}(\lambda) \varphi_n(\lambda)] = a_0 \quad (1.1.29)$$

bunga ko`ra $\det M = [\theta_N(\lambda) \varphi_{N+1}(\lambda) - \theta_{N+1}(\lambda) \varphi_N(\lambda)] = 1$ tenglik o`rinli.

Isbot. $\theta_n(\lambda)$ va $\varphi_n(\lambda)$ larni (1.1.1) ga qo`ysak

$$\begin{cases} a_{n-1} \theta_{n-1} + b_n \theta_n + a_n \theta_{n+1} = \lambda \theta_n \\ a_{n-1} \varphi_{n-1} + b_n \varphi_n + a_n \varphi_{n+1} = \lambda \varphi_n \end{cases} \quad (1.1.30)$$

tenglik o`rinli bo`ladi. Bundan esa

$$\begin{cases} a_{n-1} \theta_{n-1} \varphi_n + b_n \theta_n \varphi_n + a_n \theta_{n+1} \varphi_n = \lambda \theta_n \varphi_n \\ a_{n-1} \varphi_{n-1} \theta_n + b_n \varphi_n \theta_n + a_n \varphi_{n+1} \theta_n = \lambda \varphi_n \theta_n \end{cases},$$

$$\begin{cases} a_{n-1} \theta_{n-1} \varphi_n + a_n \theta_{n+1} \varphi_n = (\lambda - b_n) \theta_n \varphi_n \\ a_{n-1} \varphi_{n-1} \theta_n + a_n \varphi_{n+1} \theta_n = (\lambda - b_n) \varphi_n \theta_n \end{cases}$$

tengliklar kelib chiqadi. Pastdagi sistemada tengliklarni bir-biridan ayirib

$$a_n (\theta_{n+1} \varphi_n - \varphi_{n+1} \theta_n) = a_{n-1} (\varphi_{n-1} \theta_n - \varphi_n \theta_{n-1}) \quad (1.1.31)$$

tenglikni hosil qilamiz. Quyidagi bizga ma`lum munosabatlarni inobatga olib,

$$\begin{cases} \theta_{N+n}(\lambda) = \theta_n(\lambda) \\ \varphi_{N+n}(\lambda) = \varphi_n(\lambda) \end{cases}, \quad \begin{cases} \theta_N = \theta_0 \\ \varphi_N = \varphi_0 \end{cases} \quad (1.1.32)$$

va (1.1.8) tengliklardan

$$\varphi_1 \theta_0 - \varphi_0 \theta_1 = 1 \quad (1.1.33)$$

ekani kelib chiqadi, (1.1.2),(1.1.31) va (1.1.33) tengliklardan foydalansak

$$\begin{aligned} W &= a_n [\theta_n(\lambda) \varphi_{n+1}(\lambda) - \theta_{n+1}(\lambda) \varphi_n(\lambda)] = a_{n+N} [\theta_{n+N} \varphi_{n+N+1} - \theta_{n+N+1} \varphi_{n+N}] = \\ &= a_0 [\theta_0 \varphi_1 - \varphi_0 \theta_1] = a_0 \end{aligned}$$

tenglik o'rinli bo'lishi kelib chiqadi. Bunda $\det M = \theta_N \varphi_{N+1} - \theta_{N+1} \varphi_N = 1$ ekani ravshan. **Teorema 1.3** isbotlandi.

$\lambda_1, \lambda_2, \dots, \lambda_{2N}$ sonlar orqali ushbu

$$\Delta^2(\lambda) - 4 = 0$$

tenglamani, hamda $\mu_1, \mu_2, \dots, \mu_{N-1}$ sonlar orqali ushbu

$$\theta_{N+1}(\lambda) = 0$$

tenglamani ildizlarini belgilaymiz. Barcha $\lambda_i, i = 1, 2, \dots, 2N$ lar va $\mu_j, j = 1, 2, \dots, N-1$ lar haqiqiy bo'lib, μ_j ildizlar oddiydir. Quyidagi

$$\Delta^2(\lambda) - 4 = \left(\prod_{j=1}^N a_j \right)^{-2} \prod_{j=1}^{2N} (\lambda - \lambda_j),$$

$$\theta_{N+1}(\lambda) = -a_0 \left(\prod_{j=1}^N a_j \right)^{-1} \prod_{j=1}^{N-1} (\lambda - \mu_j)$$

tengliklarni bajarilishi ravshan. Ushbu

$$\sigma_j = \text{sign} \left[\theta_N(\mu_j) - \frac{1}{\theta_N(\mu_j)} \right], \quad j = 1, 2, \dots, N-1$$

belgilashni kiritamiz.

Ta`rif 1. $\mu_j, j=1, 2, \dots, N-1$ sonlar va $\sigma_j, j=1, 2, \dots, N-1$ ishoralar ketma-ketligiga diskret Xill tenglamasini spectral parametrlari deyiladi.

Ta`rif 2. $\{\mu_j, \sigma_j\}_{j=1}^{N-1}$ spectral parametrlar va $\lambda_i, i=1, 2, \dots, 2N$ sonlar ketma-ketligiga diskret Xill tenglamasini spectral berilganlari deyiladi.

Spectral berilganlarni topish va ularning xossalarini o`rganishga diskret Xill tenglamasi uchun qo`yilgan to`g`ri masala deyiladi. Aksincha, spectral berilganlar yordamida diskret Xill tenglamasini koeffitsientlari a_n, b_n larni topish masalasiga diskret Xill tenglamasini uchun qo`yilgan teskari masala deyiladi.

Ushbu

$$(L\varphi)_n \equiv a_{n-1}y_{n-1} + b_n y_n + a_n y_{n+1} = \lambda y_n, \quad n \in Z \quad (1.1.34)$$

tenglamani koeffisientlarini $k \in Z$ butun songa siljitish natijasida hosil gilingan quyidagi tenglamani ko`rib chiqamiz:

$$a_{n-1+k}y_{n-1} + b_{n+k}y_n + a_{n+k}y_{n+1} = \lambda y_n, \quad n \in Z. \quad (1.1.35)$$

$\theta_{n+k}(\lambda)$ va $\varphi_{n+k}(\lambda)$ lar (1.1.35) ning yechimi bo`ladi. Haqiqatan: Ushbu

$$a_{n-1}\theta_{n-1} + b_n\theta_n + a_n\theta_{n+1} = \lambda\theta_n,$$

tenglama koeffisientlarini $k \in Z$ butun songa siljitsak

$$a_{n-1+k}\theta_{n-1+k} + b_{n+k}\theta_{n+k} + a_{n+k}\theta_{n+1+k} = \lambda\theta_{n+k}$$

bo`ladi. Oxirgi tenglikda quyidagi

$$y_n = \theta_{n+k},$$

belgilashni kiritsak, u holda

$$a_{n-1+k}y_{n-1} + b_{n+k}y_n + a_{n+k}y_{n+1} = \lambda y_n.$$

kelib chiqadi. (1.1.35) tenglamaning quyidagi boshlang'ich shartlarni qanoatlantiruvchi yechimlarini $u_{n,k}(\lambda)$ va $v_{n,k}(\lambda)$ orqali belgilaymiz:

$$\begin{cases} u_{0,k}(\lambda) = 1 \\ u_{1,k}(\lambda) = 0 \end{cases}, \quad \begin{cases} v_{0,k}(\lambda) = 0 \\ v_{1,k}(\lambda) = 1 \end{cases} \quad (1.1.36)$$

Teorema 3.1. (1.1.35) tenglamaning Lyapunov funksiyasi $\tilde{\Delta}(\lambda)$ bo'lsa, u holda $\tilde{\Delta}(\lambda) = \Delta(\lambda)$ bo'ladi.

Isbot: $\theta_{n+k}(\lambda)$ va $\varphi_{n+k}(\lambda)$ yechimlar chiziqli erkli bo'lgani uchun

$$u_{n,k}(\lambda) = A_1\theta_{n+k}(\lambda) + A_2\varphi_{n+k}(\lambda), \quad (1.1.37)$$

$$v_{n,k}(\lambda) = B_1\theta_{n+k}(\lambda) + B_2\varphi_{n+k}(\lambda), \quad (1.1.38)$$

(1.1.37) dan

$$\begin{cases} A_1\theta_k(\lambda) + A_2\varphi_k(\lambda) = 1 \\ A_1\theta_{k+1}(\lambda) + A_2\varphi_{k+1}(\lambda) = 0 \end{cases} \quad (1.1.39)$$

kelib chiqadi. (1.1.39) sistemani yechamiz:

$$\begin{vmatrix} \theta_k(\lambda) & \varphi_k(\lambda) \\ \theta_{k+1}(\lambda) & \varphi_{k+1}(\lambda) \end{vmatrix} = \frac{a_0}{a_k}, \quad \begin{vmatrix} 1 & \varphi_k(\lambda) \\ 0 & \varphi_{k+1}(\lambda) \end{vmatrix} = \varphi_{k+1}(\lambda), \quad \begin{vmatrix} \theta_k(\lambda) & 1 \\ \theta_{k+1}(\lambda) & 0 \end{vmatrix} = -\theta_{k+1}(\lambda)$$

bo'lgani uchun

$$A_1 = \frac{a_k}{a_0}\varphi_k(\lambda), \quad A_2 = -\frac{a_k}{a_0}\theta_k(\lambda)$$

bo'ladi. Bunga ko'ra

$$u_{n,k}(\lambda) = \frac{a_k}{a_0} \cdot [\varphi_{k+1}(\lambda)\theta_{n+k}(\lambda) - \theta_{k+1}(\lambda)\varphi_{n+k}(\lambda)] \quad (1.1.40)$$

bo'ladi. Xuddi shu tarzda quyidagi tenglik kelib chiqadi:

$$v_{n,k}(\lambda) = \frac{a_k}{a_0} \cdot [-\varphi_k(\lambda)\theta_{n+k}(\lambda) + \theta_k(\lambda)\varphi_{n+k}(\lambda)], \quad (1.1.41)$$

Ushbu

$$\theta_{N+k}(\lambda) = \frac{a_0}{a_k} \cdot [\theta_N(\lambda)\theta_k(\lambda) + \theta_{N+1}(\lambda)\varphi_k(\lambda)] \quad (1.1.42)$$

$$\varphi_{N+k}(\lambda) = \frac{a_0}{a_k} \cdot [\varphi_N(\lambda)\theta_k(\lambda) + \varphi_{N+1}(\lambda)\varphi_k(\lambda)] \quad (1.1.43)$$

tengliklar o'rinli bo'lishi ravshan. (1.1.39)-(1.1.43) larga muvofiq,

$$u_{N,k}(\lambda) = \varphi_{k+1}(\lambda)[\theta_N(\lambda)\theta_k(\lambda) + \theta_{N+1}(\lambda)\varphi_k(\lambda)] - \theta_{k+1}(\lambda)[\varphi_N(\lambda)\theta_k(\lambda) + \varphi_{N+1}(\lambda)\varphi_k(\lambda)] \quad (1.1.44)$$

$$v_{N,k}(\lambda) = -\varphi_k(\lambda)[\theta_N(\lambda)\theta_k(\lambda) + \theta_{N+1}(\lambda)\varphi_k(\lambda)] + \theta_k(\lambda)[\varphi_N(\lambda)\theta_k(\lambda) + \varphi_{N+1}(\lambda)\varphi_k(\lambda)] \quad (1.1.45)$$

(1.1.40) ga ko'ra

$$\begin{aligned} v_{N+1,k}(\lambda) &= -\varphi_k(\lambda)\theta_{N+k+1}(\lambda) + \theta_k(\lambda)\varphi_{N+k+1}(\lambda) = \\ &= -\varphi_k(\lambda)[\theta_N(\lambda)\theta_{k+1}(\lambda) + \theta_{N+1}(\lambda)\varphi_{k+1}(\lambda)] + \\ &+ \theta_k(\lambda)[\varphi_N(\lambda)\theta_{k+1}(\lambda) + \varphi_{N+1}(\lambda)\varphi_{k+1}(\lambda)] \end{aligned} \quad (1.1.46)$$

(1.1.44) va (1.1.46) ga ko'ra

$$\begin{aligned} \tilde{\Delta}(\lambda) &= u_{N,k}(\lambda) + v_{N+1,k}(\lambda) = \\ &= \theta_N(\lambda)[\theta_k(\lambda)\varphi_{k+1}(\lambda) - \theta_{k+1}(\lambda)\varphi_k(\lambda)] + \varphi_{N+1}(\lambda)[\theta_k(\lambda)\varphi_{k+1}(\lambda) - \\ &- \theta_{k+1}(\lambda)\varphi_k(\lambda)] = \theta_N(\lambda) + \varphi_{N+1}(\lambda) = \Delta(\lambda) \end{aligned}$$

teorema 3.1 isbot bo'ldi.

Natija: (1.1.34) tenglamani spektri k ga bog'liq emas.

Лемма 1.1. Ushbu tengliklar o`rinli:

$$b_1 = \frac{\lambda_1 + \lambda_{2N}}{2} + \frac{1}{2} \sum_{j=1}^{N-1} (\lambda_{2j} + \lambda_{2j+1} - 2\mu_j), \quad (1.1.47)$$

$$a_0^2 = \frac{\lambda_1^2 + \lambda_{2N}^2}{8} + \frac{1}{8} \sum_{j=1}^{N-1} (\lambda_{2j}^2 + \lambda_{2j+1}^2 - 2\mu_j^2) -$$

$$- \frac{1}{4} \left[\frac{\lambda_1 + \lambda_{2N}}{2} + \frac{1}{2} \sum_{j=1}^{N-1} (\lambda_{2j} + \lambda_{2j+1} - 2\mu_j) \right]^2 - \frac{1}{2} \sum_{j=1}^{N-1} \frac{\sigma_j \sqrt{\prod_{i=1}^{2N} (\mu_j - \lambda_i)}}{\prod_{\substack{i=1 \\ i \neq j}}^{N-1} (\mu_j - \mu_i)}. \quad (1.1.48)$$

Лемма 1.2. Ushbu tengliklar o`rinli:

$$b_{k+1} = \frac{\lambda_1 + \lambda_{2N}}{2} + \frac{1}{2} \sum_{j=1}^{N-1} (\lambda_{2j} + \lambda_{2j+1} - 2\mu_{j,k}), \quad (1.1.49)$$

$$a_k^2 = \frac{\lambda_1^2 + \lambda_{2N}^2}{8} + \frac{1}{8} \sum_{j=1}^{N-1} (\lambda_{2j}^2 + \lambda_{2j+1}^2 - 2\mu_{j,k}^2) -$$

$$- \frac{1}{4} \left[\frac{\lambda_1 + \lambda_{2N}}{2} + \frac{1}{2} \sum_{j=1}^{N-1} (\lambda_{2j} + \lambda_{2j+1} - 2\mu_{j,k}) \right]^2 - \frac{1}{2} \sum_{j=1}^{N-1} \frac{\sigma_{j,k} \sqrt{\prod_{i=1}^{2N} (\mu_{j,k} - \lambda_i)}}{\prod_{\substack{i=1 \\ i \neq j}}^{N-1} (\mu_{j,k} - \mu_{i,k})}, \quad (1.1.50)$$

Bu erda $\mu_{j,k}$, $j = \overline{1, N-1}$ sonlar $u_{N+1,k}(\lambda) = 0$ tenglamani ildizlari.

2-§ Floke teoremasi.

Teorema 2.1.(Floke).

a) Agar $\Delta(\lambda) - 2 \neq 0$ bo'lsa, (1.1.1) tenglama quyidagi chiziqli erkli ikkita yechimga ega:

$$\psi_n^+(\lambda) = (\rho_+(\lambda))^{\frac{n}{N}} \cdot P_n^+, \quad P_{n+N}^+(\lambda) \equiv P_n^+(\lambda), \quad (1.2.1)$$

$$\psi_n^-(\lambda) = (\rho_-(\lambda))^{\frac{n}{N}} \cdot P_n^-, \quad P_{n+N}^-(\lambda) \equiv P_n^-(\lambda) \quad (1.2.2)$$

b) Agar $\Delta(\lambda) - 2 = 0$ bo'lsa, (1.1.1) tenglamaning davri N bo'lgan $\psi_n(\lambda)$ yechimi mavjud:

$$\psi_{n+N}(\lambda) \equiv \psi_n(\lambda), \quad n \in Z$$

c) Agar $\Delta(\lambda) + 2 = 0$ bo'lsa, (1.1.1) tenglamaning davri $2N$ bo'lgan $\psi_n(\lambda)$ yechimi mavjud:

$$\psi_{n+2N}(\lambda) \equiv \psi_n(\lambda), \quad n \in Z ;$$

Isbot. (1.1.1) masalani biror ρ son uchun $y_{n+N}(\lambda) \equiv \rho y_n(\lambda), n \in Z$ shartni qanoatlantiradigan yechimlarini axtaramiz:

$y_n(\lambda) = c_1 \theta_n(\lambda) + c_2 \varphi_n(\lambda)$ - bu (1.1.1) ning umumiy yechimi. (1.1.2) shartga ko'ra $\theta_{n+N}(\lambda), \varphi_{n+N}(\lambda)$ larni chiziqli kombinatsiyasi ham (1.1.1) ni umumiy yechimi bo'ladi. (1.1.23) va (1.1.24) tengliklardan va

$$y_{n+N}(\lambda) = c_1 \cdot \theta_{n+N}(\lambda) + c_2 \varphi_{n+N}(\lambda) \quad (1.2.3)$$

munosabat o'rinli ekanidan hamda $y_{n+N} = \rho y_n$ shartda $n = 0$ va $n = 1$ desak, u holda

$$\begin{cases} C_1 \theta_N + C_2 \varphi_N = \rho C_1 \\ C_1 \theta_{N+1} + C_2 \varphi_{N+1} = \rho C_2 \end{cases}, \quad \begin{cases} C_1(\theta_N - \rho) + C_2 \varphi_N = 0 \\ C_1 \theta_{N+1} + C_2(\varphi_{N+1} - \rho) = 0 \end{cases} \quad (1.2.4)$$

tenglamalar sistemasini hosil qilamiz. Bu (1.2.4) bir jinsli tenglamalar sistemasi noldan farqli yechimga ega bo'lishi uchun

$$\begin{vmatrix} \theta_N - \rho \varphi_N & \\ \theta_{N+1} & \varphi_{N+1} - \rho \end{vmatrix} = 0 \quad (1.2.5)$$

tenglik bajarilishi kerak. Bundan teorema 3 ga ko'ra va (1.1.26) tenglikdan $\rho^2 - \Delta(\lambda)\rho + 1 = 0$ bo'lishi kelib chiqadi. Bu kvadrat tenglamani yechib

$$D = \Delta^2(\lambda) - 4,$$

$$\rho_+(\lambda) = \frac{\Delta(\lambda) + \sqrt{\Delta^2(\lambda) - 4}}{2},$$

$$\rho_-(\lambda) = \frac{\Delta(\lambda) - \sqrt{\Delta^2(\lambda) - 4}}{2} \quad (1.2.6)$$

tengliklarga ega bo'lamiz.

a) $\Delta^2(\lambda) - 4 \neq 0$ demak ushbu tenglamani $\rho_+(\lambda)$, $\rho_-(\lambda)$ ikkita yechimi mavjud. Bularni har biriga bittadan (1.1.1) tenglamaning yechimi mos keladi. Ularni $\psi_n^+(\lambda)$, $\psi_n^-(\lambda)$ deb belgilaymiz, $\psi_{n+N}^+(\lambda) = \rho_+ \psi_n^+$, $\psi_{n+N}^-(\lambda) = \rho_- \psi_n^-$.

Ushbu $P_n^+(\lambda)$, $P_n^-(\lambda)$ funktsiyalarni kiritamiz.

$$P_{n+N}^+(\lambda) = \rho_+^{-\frac{n}{N}} \psi_n^+, \quad P_n^-(\lambda) = \rho_-^{-\frac{n}{N}} \psi_n^- \quad (1.2.7)$$

(1.2.7) funktsiyalar N davrli ekanini ko'rsatamiz

$$\begin{aligned} P_{n+N}^+(\lambda) &= \rho_+^{-\frac{n+N}{N}} \psi_{n+N}^+ = \rho_+^{-\frac{n}{N}} \rho_+^{-1} \rho_+^1 \psi_n^+ = \rho_+^{-\frac{n}{N}} \psi_n^+ \\ P_{n+N}^-(\lambda) &= \rho_-^{-\frac{n+N}{N}} \psi_{n+N}^- = \rho_-^{-\frac{n}{N}} \rho_-^{-1} \rho_-^1 \psi_n^- = \rho_-^{-\frac{n}{N}} \psi_n^- \end{aligned}$$

Demak (1.2.7) tengliklardan (1.2.1) va (1.2.2) kelib chiqadi.

$C_1 = 1$ deylik, u holda $C_2 = \frac{\rho - \theta_N}{\varphi_N}$ ya'ni

$$C_2 = \frac{\Delta(\lambda) - 2\theta_N \pm \sqrt{\Delta^2(\lambda) - 4}}{2\varphi_N} = \frac{\varphi_{N+1} - \theta_N \pm \sqrt{\Delta^2(\lambda) - 4}}{2\varphi_N} \quad (1.2.8)$$

munosabat o'rinli. Demak

$$y_n^\pm(\lambda) = C_1\theta_n(\lambda) + C_2\varphi_n(\lambda) = \theta_n(\lambda) + \frac{\varphi_{N+1}(\lambda) - \theta_N(\lambda) \pm \sqrt{\Delta^2(\lambda) - 4}}{2\varphi_N(\lambda)}\varphi_n(\lambda) \quad (1.2.9)$$

(1.2.9) tenglik bilan aniqlanadigan yechimlar Floke yechimlari deyiladi. Bu yechimlar chiziqli erkli ekaninni tekshirib ko'rish qiyin emas. Bu tenglikdagi

$$m^\pm(\lambda) = \frac{\varphi_{N+1}(\lambda) - \theta_N(\lambda) \pm \sqrt{\Delta^2(\lambda) - 4}}{2\varphi_N(\lambda)}$$

funktsiyaga Veyl-Titchmarsh funktsiyasi deyiladi.

b) $\Delta(\lambda) = 2$ bo'lsa $\rho^2 - \Delta(\lambda)\rho + 1 = 0$ tenglama $\rho_+ = \rho_- = 1$ yechimga ega bo'ladi ya'ni (1.1.1) ni $y_{n+N} = 1 \cdot y_n$ shartni qanoatlantiruvchi yechimi mavjud.

c) $\Delta(\lambda) = -2$ bo'lsa, $\rho^2 - \Delta(\lambda)\rho + 1 = 0$ tenglama $\rho_+ = \rho_- = -1$ yechimga ega bo'ladi, ya'ni (1.1.1) tenglamaning $y_{n+N}(\lambda) = -1 \cdot y_n(\lambda)$ shartni qanoatlantiruvchi yechimi mavjud. Bu yechimning davri $2N$ ga teng

$$y_{n+2N}(\lambda) = y_{n+N+N}(\lambda) = -y_{n+N}(\lambda) = -(-y_n(\lambda)) = y_n(\lambda)$$

teorema 2.1 isbotlandi.

Ta'rif 2.1. λ o'qning (1.1.1) tenglamaning chegaralangan noldan farqli yechimi mavjud bo'ladigan qismiga spektr deyiladi.

Demak, spektr $E = \{\lambda \in R : -2 \leq \Delta\lambda \leq 2\}$, $R \setminus E$ - to'plamga lakunalar deyiladi.

Teorema 2.2. $\Delta^2(\lambda) - 4 = 0$ bo'lsa (1.1.1) tenglamani barcha xos qiymatlari haqiqiydir.

Isbot: $\Delta^2(\lambda) - 4 = 0$, bundan $\rho = \pm 1$ hamda $a_{n+N} = a_n$, $b_{n+N} = b_n$ va $y_{n+N} = \pm y_n$ shartlarga asosan (1.1.1) tenglamani matritsasini yozish mumkin.

$$L^\pm = \begin{pmatrix} b_1 & a_1 & \dots & \pm a_N \\ a_1 & b_2 & \dots & \dots \\ \dots & \dots & \dots & \dots \\ \dots & \dots & \dots & \dots \\ \dots & \dots & b_{N-2} & a_{N-2} \\ \pm a_N & \dots & a_{N-2} & b_{N-1} \end{pmatrix} \quad (1.2.10)$$

Bu simmetrik matritsa bo'lib, elementlari haqiqiy. Xos qiymatlari haqiqiy ekanini ko'rsatamiz. λ xos qiymatga U xos funktsiya mos kelsin, agar xos qiymatni kompleks qo'shmasini λ^* desak unga U^* xos funktsiya mos keladi. $LU = \lambda U$, L - simmetrikligidan $(LU^*, U) = (U^*, LU)$ bo'ladi.

$$\begin{cases} \lambda U^* U = U^* (\lambda) U = U^* LU \\ \lambda^* U U^* = U \lambda^* U^* = U L U^* = U^* LU \end{cases} \quad (1.2.11)$$

(1.2.11) sistemadan $(\lambda - \lambda^*)U^* - U = 0$ bundan $\lambda = \lambda^*$. Demak λ - haqiqiy.

Teorema 2.2 isbot bo'ldi.

Teorema 2.3. Quyidagi tenglik o'rinli:

$$\frac{d\Delta}{d\lambda} = -\frac{\theta_{N+1}}{a_N} \cdot \sum_{n=1}^N \left\{ \left(\varphi_n + \frac{\theta_N - \varphi_{N+1}}{2\theta_{N+1}} \theta_n \right)^2 - \frac{\Gamma}{4\theta_{N+1}^2} \cdot \theta_n^2 \right\} \quad (1.2.12)$$

bunda

$$\Gamma = (\theta_N - \varphi_{N+1})^2 + 4\varphi_N \theta_{N+1} = (\theta_N + \varphi_{N+1})^2 - 4 = \Delta^2 - 4. \quad (1.2.13)$$

Isbot. (1.1.1) tenglamaning har bir λ ga mos ikkita $\theta_n(\lambda)$, $\psi_n(\lambda)$ chiziqli erkli yechimini qaraylik. Bularni (1.1.1) tenglamaga qo'ysak quyidagi tenglikka ega bo'lamiz.

$$\begin{cases} a_{n-1}\theta_{n-1} + b_n\theta_n + a_n\theta_{n+1} = \lambda\theta_n \\ a_{n-1}\psi_{n-1} + b_n\psi_n + a_n\psi_{n+1} = \tilde{\lambda}\psi_n \end{cases} \quad (1.2.14)$$

birinchi tenglikni ψ_n ga ikkinchini esa θ_n ga ko'paytirib birinchi tenglikdan ikkin-chisini ayirsak

$$\begin{aligned} (\lambda - \tilde{\lambda})\theta_n \cdot \psi_n &= \psi_n(a_n\theta_{n+1} + b_n\theta_n + a_{n-1}\theta_{n-1}) - \\ - \psi_n(a_n\psi_{n+1} + b_n\psi_n + a_{n-1}\psi_{n-1}) &= a_n(\theta_{n+1}\psi_n - \theta_n\psi_{n+1}) - a_{n-1}(\theta_n\psi_{n-1} - \theta_{n-1}\psi_n) \end{aligned} \quad (1.2.15)$$

tenglik hosil bo'ladi. Ikkala ta'rifdan $n=1$ dan N gacha yig'indi olsak quyidagiga ega bo'lamiz.

$$\begin{aligned} (\lambda - \tilde{\lambda})\sum_{n=1}^N \theta_n\psi_n &= a_1(\theta_2\psi_1 - \theta_1\psi_2) + a_0(\theta_1\psi_0 - \theta_0\psi_1) + a_2(\theta_3\psi_2 - \theta_2\psi_3) - \\ &- a_1(\theta_2\psi_1 - \theta_1\psi_2) + a_3a_1(\theta_4\psi_3 - \theta_3\psi_4) - a_2(\theta_3\psi_2 - \theta_2\psi_3) + \\ &+ \dots + \\ &+ a_N(\theta_{N+1}\psi_N - \theta_N\psi_{N+1}) - a_{N-1}(\theta_N\psi_{N-1} - \theta_{N-1}\psi_N) = \\ &= a_N(\theta_{N+1}\psi_N - \theta_N\psi_{N+1}) - a_0(\theta_1\psi_0 - \theta_0\psi_1), \end{aligned} \quad (1.2.16)$$

(1.2.16) tenglikda $\theta_0(\lambda)=1, \theta_1(\lambda)=0, \psi_0(\tilde{\lambda})=0, \psi_1(\tilde{\lambda})=1$ shartlarni inobatga olib, hamda $\psi_n(\tilde{\lambda})=\theta_n(\tilde{\lambda})$ deb olsak u holda quyidagi tenglikni hosil qilamiz.

$$(\lambda - \tilde{\lambda})\sum_{n=1}^N \theta_n(\lambda)\psi_n(\lambda) = a_N(\theta_{N+1}(\lambda)\psi_N(\lambda) - \theta_N(\lambda)\psi_{N+1}(\lambda)) \quad (1.2.17)$$

(1.2.17) tenglikda $\Delta\lambda$ nolga intilganda limitga o'tib $\theta'_n = \frac{d\theta_n}{d\lambda}$ belgilash kiritsak u holda

$$\begin{aligned}
\|\theta_n(\lambda)\|^2 &= \sum_{n=1}^N \theta_n^2(\lambda) = \\
&= a_N \left[\theta_N(\lambda) \lim_{\lambda \rightarrow \tilde{\lambda}} \frac{\theta_{N+1}(\lambda) - \theta_{N+1}(\tilde{\lambda})}{\lambda - \tilde{\lambda}} - \theta_{N+1}(\lambda) \lim_{\lambda \rightarrow \tilde{\lambda}} \frac{\theta_N(\lambda) - \theta_N(\tilde{\lambda})}{\lambda - \tilde{\lambda}} \right] = \\
&= a_N (\theta_N \theta'_{N+1} - \theta_{N+1} \theta'_N)
\end{aligned} \tag{1.2.18}$$

Xuddi shunga o'xshash $\varphi_n(\lambda)$ va $\varphi_n(\lambda) \cdot \theta_n(\lambda)$ ifodalar uchun quyidagilarni hosil qilish mumkin.

$$\sum_{n=1}^N \varphi_n^2(\lambda) = a_N [\varphi_N(\lambda) \varphi'_{N+1}(\lambda) - \varphi_{N+1}(\lambda) \varphi'_N(\lambda)], \tag{1.2.19}$$

$$\begin{aligned}
\sum_{n=1}^N \theta_n(\lambda) \varphi_n(\lambda) &= \frac{a_N}{2} (\varphi_N \theta'_{N+1} - \varphi_{N+1} \theta'_N + \theta_N \varphi'_{N+1} - \theta_{N+1} \varphi'_N) = \\
&= a_N (\theta_N \varphi'_{N+1} - \theta_{N+1} \varphi'_N) = a_N (\varphi_N \theta'_{N+1} - \varphi_{N+1} \theta'_N)
\end{aligned} \tag{1.2.20}$$

(2.18-20) va (1.1.26) tengliklardan foydalanib quyidagini keltirib chiqaramiz:

$$\begin{aligned}
&\frac{1}{a_N} \sum_{n=1}^N \{ \varphi_N \theta_n^2 - [\theta_N - \varphi_{N+1}] \theta_n \varphi_n - \theta_{N+1} \varphi_n^2 \} = \\
&\{ \theta_N \varphi_N \theta'_{N+1} - \varphi_N \theta_{N+1} \theta'_N + \theta_N \varphi_{N+1} \theta'_N - \theta'_N \theta_N \varphi_{N+1} + \theta_{N+1} \varphi_{N+1} \varphi'_N - \\
&- \theta_{N+1} \varphi_N \varphi'_{N+1} + \theta_N \varphi_{N+1} \varphi'_{N+1} - \varphi_{N+1} \theta_N \varphi'_{N+1} - (\theta_N - \varphi_{N+1}) (\theta_N \varphi'_{N+1} - \varphi'_N \theta_{N+1}) \} = \\
&= \{ \Delta'(\lambda) + (\theta_N - \varphi_{N+1}) (\theta_N \varphi'_{N+1} - \varphi'_N \theta_{N+1}) - (\theta_N - \varphi_{N+1}) (\theta_N \varphi'_{N+1} - \varphi'_N \theta_{N+1}) \} = \Delta'(\lambda)
\end{aligned} \tag{1.2.21}$$

(1.2.21) tenglikda (1.2.13) belgilashni kiritib uni quyidagicha yozish mumkin.

$$\frac{d\Delta}{d\lambda} = -\frac{\theta_{N+1}}{a_N} \cdot \sum_{n=1}^N \left\{ \left(\varphi_n + \frac{\theta_N - \varphi_{N+1}}{2\theta_{N+1}} \theta_n \right)^2 - \frac{\Gamma}{4\theta_{N+1}^2} \cdot \theta_n^2 \right\}$$

Teorema 2.3 isbot bo'ldi.

Natija : Teorema 2.3 dagi (1.2.12) tenglikda θ_{N+1} funktsiya $\Delta^2 - 4 < 0$ da nolga aylanmaydi va $sign(\Delta'(\lambda)) = sign(-\theta_{N+1})$ tenglik o'rinli bo'ladi.

Isbot: $\Delta^2 - 4 < 0$ bo'lsin.

Agar $\theta_{N+1} = 0$ bo'lsa u holda **Teorema 3** dan $\theta_N \cdot \varphi_{N+1} = 1$ va $\varphi_{N+1} = \frac{1}{\theta_N}$

ekani kelib chiqadi. Demak, $|\Delta(\lambda)| = |\theta_N + \varphi_{N+1}| = \left| \theta_N + \frac{1}{\theta_N} \right| \geq 2$ bo'lib bu esa

$\Delta^2 - 4 < 0$ ga ziddir. (1.2.12) tenglikdan esa $\Gamma = \Delta^2 - 4 < 0$ bo'lganda $sign(\Delta'(\lambda)) = sign(-\theta_{N+1})$ ekani bizga ravshan natija isbot bo'ldi.

Izoh 2.1: $\Delta^2 - 4 > 0$ bo'lganda ham (1.2.12) tenglikni shaklini o'zgartirib $\Delta'(\lambda)$ ifodani ishorasini aniqlash mumkin.

3 - § Teskari masala yechish algoritmini keltirib chiqarish.

Ushbu

$$(L\varphi)_n \equiv a_{n-1}y_{n-1} + b_n y_n + a_n y_{n+1} = \lambda y_n, \quad n \in Z \quad (1.3.1)$$

tenglamani quyidagi

$$\begin{cases} \theta_0(\lambda) = 1, & \varphi_0(\lambda) = 0, \\ \theta_1(\lambda) = 0, & \varphi_1(\lambda) = 1, \end{cases} \quad (1.3.2)$$

boshlang'ich shartlarni qanoatlantiruvchi yechimlarini $\theta_n(\lambda)$ va $\varphi_n(\lambda)$ orqali belgilaymiz. Endi (1.3.1) tenglamani koefitsientlarini $k \in Z$ butun songa siljitish natijasida hosil gilingan quyidagi tenglamani ko'rib chiqamiz:

$$a_{n-1+k}y_{n-1} + b_{n+k}y_n + a_{n+k}y_{n+1} = \lambda y_n, \quad n \in Z. \quad (1.3.3)$$

$\theta_{n+k}(\lambda)$ va $\varphi_{n+k}(\lambda)$ lar (1.3.3) ning yechimi bo'ladi. Haqiqatan: Ushbu

$$a_{n-1}\theta_{n-1} + b_n\theta_n + a_n\theta_{n+1} = \lambda\theta_n,$$

tenglama koefitsientlarini $k \in Z$ butun songa siljitsak

$$a_{n-1+k}\theta_{n-1+k} + b_{n+k}\theta_{n+k} + a_{n+k}\theta_{n+1+k} = \lambda\theta_{n+k}$$

bo'ladi. Oxirgi tenglikda quyidagi

$$y_n = \theta_{n+k},$$

belgilashni kiritsak, u holda

$$a_{n-1+k}y_{n-1} + b_{n+k}y_n + a_{n+k}y_{n+1} = \lambda y_n.$$

kelib chiqadi. (1.3.3) tenglamaning quyidagi

$$\begin{cases} \theta_{0,k}(\lambda) = 1 \\ \theta_{1,k}(\lambda) = 0 \end{cases}, \quad \begin{cases} \varphi_{0,k}(\lambda) = 0 \\ \varphi_{1,k}(\lambda) = 1 \end{cases} \quad (1.3.4)$$

boshlang'ich shartlarni qanoatlantiruvchi yechimlarini $\theta_{n,k}(\lambda)$ va $\varphi_{n,k}(\lambda)$ orqali belgilaymiz.

Lemma 3.1. $\theta_{n,k}(\lambda)$ va $\varphi_{n,k}(\lambda)$ yechimlar uchun ushbu tengliklar bajariladi:

$$\theta_{n,k}(\lambda) = \frac{a_k}{a_0} \cdot [\varphi_{k+1}(\lambda)\theta_{n+k}(\lambda) - \theta_{k+1}(\lambda)\varphi_{n+k}(\lambda)] \quad (1.3.5)$$

$$\varphi_{n,k}(\lambda) = \frac{a_k}{a_0} \cdot [-\varphi_k(\lambda)\theta_{n+k}(\lambda) + \theta_k(\lambda)\varphi_{n+k}(\lambda)], \quad (1.3.6)$$

Isbot. $\theta_{n+k}(\lambda)$ va $\varphi_{n+k}(\lambda)$ yechimlar chiziqli erkli bo'lgani uchun

$$\theta_{n,k}(\lambda) = A_1\theta_{n+k}(\lambda) + A_2\varphi_{n+k}(\lambda), \quad (1.3.7)$$

$$\varphi_{n,k}(\lambda) = B_1\theta_{n+k}(\lambda) + B_2\varphi_{n+k}(\lambda), \quad (1.3.8)$$

(1.3.7) dan

$$\begin{cases} A_1\theta_k(\lambda) + A_2\varphi_k(\lambda) = 1 \\ A_1\theta_{k+1}(\lambda) + A_2\varphi_{k+1}(\lambda) = 0 \end{cases} \quad (1.3.9)$$

kelib chiqadi. (1.3.9) sistemani yechamiz:

$$\begin{vmatrix} \theta_k(\lambda) & \varphi_k(\lambda) \\ \theta_{k+1}(\lambda) & \varphi_{k+1}(\lambda) \end{vmatrix} = \frac{a_0}{a_k}, \quad \begin{vmatrix} 1 & \varphi_k(\lambda) \\ 0 & \varphi_{k+1}(\lambda) \end{vmatrix} = \varphi_{k+1}(\lambda), \quad \begin{vmatrix} \theta_k(\lambda) & 1 \\ \theta_{k+1}(\lambda) & 0 \end{vmatrix} = -\theta_{k+1}(\lambda)$$

bo'lgani uchun

$$A_1 = \frac{a_k}{a_0}\varphi_k(\lambda), \quad A_2 = -\frac{a_k}{a_0}\theta_k(\lambda)$$

bo'ladi. Bundan esa (1.3.7) va (1.3.8) ga ko'ra (1.3.5) va (1.3.6) kelib chiqadi.

Lemma isbotlandi.

$\theta_{N+1,k}(\lambda) = 0$ tenglamani ildizlarini $\mu_j(k)$, $j = \overline{1, N-1}$ orqali belgilaymiz. (1.3.5) va (1.3.6) dan

$$\theta_{n+1,k-1} = \frac{a_{k-1}}{a_0} [\varphi_k \theta_{n+k} - \theta_n \varphi_{n+k}] = \frac{a_{k-1}}{a_0} \cdot \frac{a_0}{a_k} (-\varphi_{n,k}) = -\frac{a_{k-1}}{a_k} \varphi_{n,k} \quad (1.3.10)$$

bo`ladi. (1.3.10) dan quyidagilar kelib chiqadi:

$$\theta_{n+1,k-1} = -\frac{a_{k-1}}{a_k} \varphi_{n,k}, \quad (1.3.11)$$

$$\varphi_{n-1,k+1} = -\frac{a_{k+1}}{a_k} \theta_{n,k} \quad (1.3.12)$$

Ushbu

$$a_{n-1} \theta_{n-1} + b_n \theta_n + a_n \theta_{n+1} = \lambda \theta_n$$

tenglikda n ni $n+N$ ga siljitamiz, natijada quyidagi

$$a_{n-1+N} \theta_{n-1+N} + b_{n+N} \theta_{n+N} + a_{n+N} \theta_{n+1+N} = \lambda \theta_{n+N},$$

$$a_{n-1} \theta_{n-1+N} + b_n \theta_{n+N} + a_n \theta_{n+1+N} = \lambda \theta_{n+N}$$

tengliklarga ega bo`lamiz. Bulardan esa θ_{n+N} ham (1.3.1) ni yechimi ekan

kelib chiqadi. U holda θ_{n+N} yechim θ_n va φ_n yechimlar orqali chiziqli

ifodalanadi, ya`ni

$$\theta_{n+N} = c_1 \theta_n + c_2 \varphi_n \quad (1.3.13)$$

(1.3.13) da c_1 va c_2 larni topamiz:

$$\begin{aligned} n=0, & \quad \theta_N = c_1 \cdot 1 + c_2 \cdot 0 \Rightarrow c_1 = \theta_N \\ n=1, & \quad \theta_{N+1} = c_1 \cdot 0 + c_2 \cdot 1 \Rightarrow c_2 = \theta_{N+1} \end{aligned}$$

Topilganlarga ko`ra, quyidagi

$$\theta_{n+N} = \theta_N \theta_n + \theta_{N+1} \varphi_n \quad (1.3.14)$$

$$\varphi_{n+N} = \varphi_N \theta_n + \varphi_{N+1} \varphi_n \quad (1.3.15)$$

(1.3.14) va (1.3.15) larni (1.3.5) va (1.3.6) larga qo`yamiz:

$$\begin{aligned} \theta_{N+1,k}(\lambda) &= \frac{a_k}{a_0} [\varphi_{k+1} \theta_{N+1+k} - \theta_{k+1} \varphi_{N+1+k}] = \\ &= \frac{a_k}{a_0} \varphi_{k+1} [\theta_N \theta_{k+1} + \theta_{N+1} \varphi_{k+1}] - \frac{a_k}{a_0} \theta_{k+1} [\varphi_N \theta_{N+1} + \varphi_{N+1} \varphi_{k+1}], \end{aligned}$$

$$\theta_{N+1,k}(\lambda) = \frac{a_k}{a_0} \{ \theta_{N+1} \varphi_{n+1}^2 + [\theta_N - \varphi_{N+1}] \theta_{k+1} \varphi_{k+1} - \varphi_N \theta_{n+1}^2 \}. \quad (1.3.16)$$

(1.3.16) dan

$$\theta_{N+1,k+1}(\lambda) = \frac{a_{k+1}}{a_0} \{ \theta_{N+1} \varphi_{n+2}^2 + [\theta_N - \varphi_{N+1}] \theta_{k+2} \varphi_{k+2} - \varphi_N \theta_{n+2}^2 \} \quad (1.3.17)$$

kelib chiqadi. $\theta_{N+1,k+1}$ ni $\theta_{N+1,k}$, $\theta_{N,k} - \varphi_{N+1,k}$, $\varphi_{N,k}$ lar orqali chiziqli ifodalash kerak. Shu maqsadda quyidagilarni hisoblaymiz:

$$\begin{aligned} \theta_{N,k} &= \frac{a_k}{a_0} [\varphi_{k+1} \theta_{N+k} - \theta_{k+1} \varphi_{N+k}] = \frac{a_k}{a_0} [\varphi_{k+1} (\theta_N \theta_k + \theta_{N+1} \varphi_k) - \theta_{k+1} (\varphi_N \theta_k + \varphi_{N+1} \varphi_k)] = \\ &= \frac{a_k}{a_0} \{ \theta_N \theta_k \varphi_{k+1} + \theta_{N+1} \varphi_k \varphi_{k+1} - \varphi_N \theta_k \theta_{k+1} - \varphi_{N+1} \varphi_k \theta_{k+1} \}, \quad (1.3.18) \end{aligned}$$

$$\begin{aligned} \varphi_{N+1,k} &= \frac{a_k}{a_0} \{ -\varphi_k \theta_{N+1+k} + \theta_k \varphi_{N+1+k} \} = \\ &= -\frac{a_k}{a_0} \varphi_k (\theta_N \theta_{k+1} + \theta_{N+1} \varphi_{k+1}) + \frac{a_k}{a_0} \theta_k (\varphi_N \theta_{k+1} + \varphi_{N+1} \varphi_{k+1}), \end{aligned}$$

$$\varphi_{N+1,k} = \frac{a_k}{a_0} \{-\theta_N \theta_{k+1} \varphi_k - \theta_{N+1} \varphi_k \varphi_{k+1} + \varphi_N \theta_k \theta_{k+1} + \varphi_{N+1} \theta_k \varphi_{k+1}\}. \quad (1.3.19)$$

(1.3.18) va (1.3.19) dan

$$\begin{aligned} \theta_{N,k} - \varphi_{N+1,k} &= \frac{a_k}{a_0} \{\theta_N (\theta_k \varphi_{k+1} + \theta_{k+1} \varphi_k) + 2\theta_{N+1} \varphi_k \varphi_{k+1} - \\ &\quad - 2\varphi_N \theta_k \theta_{k+1} - \varphi_{N+1} (\theta_k \varphi_{k+1} + \theta_{k+1} \varphi_k)\} = \\ &= \frac{a_k}{a_0} \{2\theta_{N+1} \varphi_k \varphi_{k+1} + (\theta_N - \varphi_{N+1}) (\theta_k \varphi_{k+1} + \theta_{k+1} \varphi_k) - 2\varphi_N \theta_k \theta_{k+1}\}. \end{aligned} \quad (1.3.20)$$

(1.3.6) ga ko`ra

$$\varphi_{N,k} = \frac{a_k}{a_0} [-\varphi_k \theta_{N+k} + \theta_N \varphi_{N+k}] = -\frac{a_k}{a_0} \varphi_k (\theta_N \theta_k + \theta_{N+1} \varphi_k) + \frac{a_k}{a_0} \theta_k (\varphi_N \theta_k + \varphi_{N+1} \varphi_k),$$

$$\varphi_{N,k} = \frac{a_k}{a_0} \{-\theta_{N+1} \varphi_k^2 - (\theta_N - \varphi_{N+1}) \theta_k \varphi_k + \varphi_N \theta_k^2\}. \quad (1.3.21)$$

(1.3.19)-(1.3.21) ko`rinishlaridan foydalanib, ushbu

$$\theta_{N+1,k+1} = \alpha \theta_{N+1,k} + \beta (\theta_{N,k} - \varphi_{N+1,k}) + \gamma \varphi_{N,k} \quad (1.3.22)$$

tenglikdagi α, β, γ larni aniqlaymiz:

$$\frac{a_{k+1}}{a_0}(\varphi_{k+2}^2) = \frac{a_k}{a_0}\varphi_{k+1}^2\alpha + \frac{2a_k}{a_0}\varphi_k\varphi_{k+1}\beta - \frac{a_k}{a_0}\varphi_k^2\gamma, \quad (1.3.23)$$

$$\frac{a_{k+1}}{a_0}\theta_{k+2}\varphi_{k+2} = \frac{a_k}{a_0}\theta_{k+1}\varphi_{k+1}\alpha + \frac{a_k}{a_0}(\theta_k\varphi_{k+1} + \theta_{k+1}\varphi_k)\beta - \frac{a_k}{a_0}\theta_k\varphi_k\gamma, \quad (1.3.24)$$

